

YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQ EKANLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY XULOSA

1. Loyihaning turi:

Shartnomaga oid. “Elektr energiyasi yetkazib berish haqida”.

2. Loyihaning nomi:

“Ushbu shartnoma bo‘yicha **Qarshi shahar Elektr tarmoqlari** (“Ta‘minotchi”) Qarshi shahar maktabgacha ta‘lim bo‘limi (“Iste‘molchi”) ning buyurtmanomasiga muvofiq ulangan tarmoq orkali elektr energiyasi yetkazib berishni o‘z zimmasiga olishi, “Iste‘molchi” esa mazkur shartnomada belgilangan quvvatdagi elektr energiyasini qabul qilib olishi va ilova qilinadigan jadval asosida budjetdan ajratilgan mablag‘lar hisobidan haq to‘lashni o‘z zimmasiga olishi to‘g‘risida”.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma‘lumot:

Qarshi shahar maktabgacha ta‘limi bo‘limi mudiri B.Muminov tomonidna 2022-yil 05-yanvar.

Loyiha amaldagi O‘zbekiston Respublikasining 21.12.1995-yildagi Fuqarolik kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining 29.08.1998-yil “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-670-I-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Elektr energiyasidan foydalanganlik uchun hisob-kitob qilish mexanizmini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 511-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining “davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3953-sonli qarorilariga mos ravishda ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Qarshi shahar yuridik
xizmat ko‘rsatish xizmati
markazi bosh yuriskonsulti**

N.S.Qilichev

2022-yil 06-yanvar

